



INTERAKTIV DARS METODLARI VA ULARNING BOSHLANG'ICH SINFLARDA QO'LLANISH IMKONIYATLARI

Erkinova Nazokatxon Anvarjon qizi

FarDU 1-bosqich magistranti

nazokatxonerkinovafdu@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15496006>

ARTICLE INFO

Received: 15th May 2025

Accepted: 19th May 2025

Published: 23rd May 2025

KEYWORDS

ta'lim , interaktiv metodlar,
innovatsion
texnologiyalar , ijodkorlik ,
interaktivlik, qo'llash mahorati .

ABSTRACT

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf darslarida interaktiv metodlardan foydalanish , boshlang'ich ta'limni tashkil etishda interaktiv metodlarning tutgan o'rni , ta'lim tizimiga zamonaviy yondashuvlar haqida fikr yuritiladi. Hozirgi paytda ta'lim jarayonida interaktiv metodlar innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish hamda ularga bo'lgan e'tibor kundan -kunga kuchayib bormoqda. Buning sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchi - talabalarga faqat tayyor bilimlar berib kelingan bolsa , zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishga , mustaqil ravishda o'rganish va tahlil qilishga , ushbu qilingan ishlardan xulosalar keltirib chiqarishga undaydi. Pedagog bu jarayonda bolalarning rivojlanishi, shakillanishi , bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi , shu bilan birgalikda , boshqaruvchanlik funksiyasini ham bajaradi.

KIRISH. Pedagogik texnologiyalarning bugungi kunda eng ommaviylashgan turlaridan biri - bu interaktiv metodlardir. Interaktiv metodlar o'quvchi va o'qituvchining birgalikdagi faoliyati bo'lib , asosan o'quvchilarni fikrlashga undaydi , kerakli xulosaga kelishini , shuningdek , o'quvchilar o'zini tahlil qilishni va amaliyotda qo'llashni o'rgatadi . O'qituvchining asosiy vazifasi bu yerda o'quvchilarga yo'l ko'rsatish , yo'nalish berish , eng to'g'ri bo'lgan xulosani aytishdan iboratdir . Interaktiv usullar yana shunisi bilan ahamiyatliki , o'qituvchi o'quvchining fikrini hech qachon keskin rad etmaydi, faqatgina vaqti bilan to'g'ri xulosani aytib o'tib ketadi. Natijada , o'quvchi xatosini o'zi tushunib oladi. Bu usul orqali o'quvchilar erkin fikr yuritish ko'nikmasini o'zlarida shakillantiradilar. Bu bilan o'qituvchilar bolalarning tushkunlikka tushish , fikrlashda tormozlanish , fikrini erkin bayon qila olmaslik kabi xatolarni oldini oladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Ilm - fan taraqqiyotiga bo'lgan qiziqish , e'tibor nafaqat hozirgi davr talabi balki , IX - X asrlardan buyon ilgari surilib , isbotlanib kelayotgan masalalardan biridir.

Misol uchun, buyuk alloma Al- Xorazmiyning didaktik qarashlariga to'xtaladigan bo'lsak, u bilim olishda talabaning shaxsiy kuzatishlariga va olgan bilimlaridan o'rinli foydalanishlariga katta e'tibor beradi. Bunda u ilm o'rganuvchilarning ilmiy manbalarni topish, o'rganish va tushuntira olish malakalarini hosil qilish zarurati haqida to'xtaladi. U o'zining «Al-Jabr val-Muqobala» asarida olimlar uch guruhga bo'linishini aytadi: «Ulardan biri o'zidan avvalgilarga qilgan ishlarni amalga oshirishda boshqalardan o'zib ketadi va uni o'zidan keyin qoluvchilarga meros qilib qoldiradi. Boshqasi o'zidan avvalgilarning asarlarini sharhlaydi va bu bilan asami tushunishdagi qiyinchiliklarni osonlashtiradi, uni tushunarliroq qiladi. Keyingisi esa sochilib yotganni to'playdi, o'zidan avvalgilarga haqida yaxshi fikrda bo'Madi». Al-Xorazmiyning bu fikrlari o'sha davrdagi ilmiy-tadqiqot ishlari va ta'lim metodlari haqida yorqin ma'lumot beradi

ABU ALI IBN SINO

U komillikka erishishning eng maqbul yo'li ilm egallash ekanligini uqtiradi. Bilimsiz kishilar johil boiadi va haqiqatni bila olmaydilar, bilimni egallashda mantiqiy tafakkurga, shaxsiy kuzatish va tajribalarga tayanish kerak degan g'oyani ilgari suradi. Bolalarning maktabda jamoa boiib o'qitilishining foydali jihatlarini sanab o'tadi. Ibn Sino ta'limotida o'qitishning qaysi metodlaridan foydalanish maqsadga muvofiqligi haqida ham ma'lumotlar bor. Uning 25 ta'kidlashicha, qaysi ta'lim metodidan foydalanishdan qat'i nazar bilim oluvchida haqiqiy bilim hosil qilish, mustaqil, mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, olgan bilimlarni amaliyotga tadbiiq eta olish qobiliyatini tarkib toptirish asosiy maqsaddir.

Buyuk ajdodlarimiz ilgari surgan ushbu g'oyalar hozirgi davrda ham o'z qiymatini yo'qotgani yo'q.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Interaktiv metodlar orqali bolaga ta'lim va tarbiya bir vaqtning o'zida berib boriladi, chunki interaktiv metodlar o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi hurmatga asoslangandir. O'qituvchi qanday bo'lmasin o'quvchining fikrini tinglaydi va bu bilan o'qituvchi pedagog o'quvchilarga o'zgalarning fikriga hurmat bilan qarashni o'rgatib boradi. O'quvchilarda esa bir - birini tinglash ko'nikmasi hosil boladi. Bunday darslarda o'quvchi o'zini hurmat qilinayotganini sezadi va ushbu sharoitda hech qanday taziqsiz erkin fikr lay boshlaydi. Fikrlarini ochiq bayon eta oladi. Interaktiv metodlar o'quvchilarda eng avvalo, darsning texnologik loyihasini tuzib olishi lozim. Darsni texnologik loyihalash uchun esa, o'qituvchi interaktiv metod strategiyalari va usullari bilan tanish bo'lishi kerakdir. Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda o'quvchilarning o'quv va ijodiy faolliklarini oshiruvchi hamda ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasida ko'plab tajribalar to'plangan. Ushbu tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar o'ziga xos ahamiyatga egadir. Zamonaviy dars berish metodlaridan asosiysi "interaktiv" metod bo'lib, hozirda uning tarjimasi ko'p hollarda "interfaol" deb yuritiladi, "interaktiv" atamasi aslida inglizcha "interaktiv" so'zidan olingan bo'lib, "o'zaro ta'sirlashish" ma'nosini bildiradi va biror faoliyat yoki metodda o'zaro bahs - munozara, fikrlash asosida faoliyat yoki hamjihatlik bilan hal etish tushuniladi. Ammo biz ayrim o'quv qo'llanmalaridan foydalanganimizda "o'qitishning interaktiv metodlari" termini kabi qo'llanishining ham guvohi bo'ldik. Ta'lim berish jarayoni bevosita o'qitish metodi bilan uzviy bog'liqdir. Xo'sh, aslida interaktiv metodning o'zi hozirgi kunda qanday ma'no anglatmoqda? Interaktiv (inglizcha INTERACTION anglatadi) metodlar-bu jamoa bo'lib fikrlash deb yuritiladi, ya'ni yuqorida ta'kidlaganimizdek, bir paytning o'zida ham pedagog, ham o'quvchining birdek faoliyati tushuniladi. Uning asosiy mazmuni ham, tarkibi ham shundan iboratdir. Interaktiv metodlar o'zining quyidagi maqsadlariga ega:

1. Interfaol metodlar o'qituvchi va o'quvchining faol munosabatlaridan biridir .
2. Interfaol metodlarning maqsadi o'qituvchi bilan o'quvchining o'zaro hamfikrligini ta'minlash.
3. Ushbu metodlar orqali o'quvchi qabul qilishni rivojlantirish, o'quvchilarni bilim olishini ta'minlash kabilarni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi.

Shunday qilib, hozirgi kunda interaktiv metodlarning quyidagi turlari mavjud: 1. Aqliy hujum.

2. Jamoaviy o'qitish usuli.
3. Kichik guruhlarda ishlash.
4. O'yinli o'qitish.
5. Muloqot metodi.
6. Tarmoqlar metodi.

7. Boshqaruv metodi va boshqalar. Bu metodlardan bir nechtasiga to'xtalib o'tishni joiz deb bildik. Bugungi kunda miya faoliyatining ish koeffitsientini oshirishga qaratilgan turli xil metodlar o'ylab topilmoqda. Vaholanki, olimlarning fikriga qaraganda, inson miyasining 7 % gina ishlar ekan xolos. Eng avvalo, aqliy hujum metodiga to'xtalib o'tmoqchimiz. Sababi bu metod eng ommalashgan metodlardan biridir. Bizning kelajagimiz bo'lgan yosh avlod asosiy ya'ni fundamental bilimni shubhasiz, boshlang'ich sinfdan olishni boshlaydi. Bizning maqsadimiz bugungi kun pedagoglari o'z faoliyatida innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida interaktiv metodlardan keng foydalana olishidir. Ammo bugungi kunda interaktiv metodlardan foydalanib ham o'qituvchi , ham o'quvchi birdek faol harakat qilayotganligini barcha umumta'lim maktablarida kuzatish qiyin masalalardan biridir. Shuning uchun bu mavzuni bugungi kunning dolzarb masalasiga aylantirdik. Interaktiv dars metodlari, boshlang'ich sinflarda o'quv jarayonini yanada qiziquvchan va samarali qilishda muhim rol o'ynaydi. Bu metodlar o'quvchilarning masofaviy ta'limni, faol qatnashishini, fikr bildirishini va mustaqil o'rganishini rag'batlantirishga yordam beradi. Masalan, o'yinlar, animatsiyalar, elektron darsliklar, interaktiv ko'nikmalar va jamoada ishlash orqali o'quvchilarning qiziqishlarini oshiradi va ularga motivatsiya beradi. Bunday interaktiv dars usullari o'quvchilarning o'zlarini o'rganish va tushunishini rivojlantiradi.

XULOSA :

Ushbu maqolada, interaktiv metodlar va ularning qo'llanishi , mazmun mohiyati ochib berilgan. Xulosa qilib aytganda , interfaol metodlardan foydalanish, o'quvchilarni muammolarni tahlil qilishga , savollar berish va yangi yechimlar izlashga ko'niktirib boradi. Bu o'quvchilarning muammolarga logika va analitik qobiliyatlarni rivojlantirishga yordam beradi. Ularga o'zlarining o'rganish jarayonlarida o'quvchilar o'zlariga tegishli muammolarni tahlil qilish va yechishga intilishadi. Shunday qilib, ona tilini o'rganishda interfaol metodlardan foydalanish, o'quvchilarning o'zlarining o'rganish jarayonlarida aktiv qatnashish, ko'nikmalarni rivojlantirish, fikr almashish va kommunikatsiya qobiliyatlarini rivojlantirish, muammolarga yechim topish qobiliyatini rivojlantirish va o'quvchilarning o'zining o'rganish jarayonlarini o'zlashtirishiga imkon beradi. Bu natijalar o'quvchilarning ona tilini yaxshiroq o'rganishlari va o'zlarining bilimlarini oshirishlari uchun muhim rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Sayidaxmedov N.S Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. –T., O'zMU
- 2.Ibragimov X. I va boshqalar. Pedagogik psixologiya. O'quv qo'llanma. – T.:O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. 2007 y.
- 3.Xo'jayev N. va boshqalar. Pedagogika asoslari. –T.: 2003. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentyabrdagi –Xalq ta'limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari.
- 4.Pedagogik asoslari. –T., Fan, 2012.
- 5.Yo'ldashev J. G., Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. –T: Fan va texnologiya, 2008
- 6.M.J.Mutalipova. Xalq pedagogikasi. -T.: «Fan va texnologiya», 2015,160 bet.
- 7.B.X.Xodjayev. –Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti||. –Sano-standart|| nashriyoti. Toshkent –2017. 92-bet.

